

**ASSOTSIATIV MAYDONDA ANTONIM VA
SINONIMLARNING O'RNI**

*Axmedova Nargiza Shixnazarovna,
Oriental universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi*

**МЕСТО ANTONИМОВ И СИНОНИМОВ В
АССОЦИАТИВНОМ ПОЛЕ**

*Axmedova Nargiza Shixnazarovna, docent universiteta
Oriental, kandidat filologicheskix nauk*

**THE PLACE OF ANTONYMS AND SYNONYMS IN
THE ASSOCIATIVE FIELD**

*Akhmedova Nargiza Shikhnazarovna, Associate Professor,
Candidate of Philological Sciences, University of Oriental*



ashnargiza@gmail.com

+998977401244

<https://orcid.org/0009-0000-4508-4381>

Annotatsiya: Olamning lisoniy manzarasi tahlilida insonning tashqi olam haqidagi tasavvuri va uning tilda aks etishi masalasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Olamning tilda aks etishida assotsiativ tafakkurning o'rni, til birliklarining assotsiativ aloqasi, shu aloqaga ko'ra ma'lum guruhlariga birikuv, gapni yoki matnni hosil qilishdagi o'rni assotsiativ yondashuvning ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Tilni o'rganishga assotsiativ yondashuv, assotsiativ tahlil metodlari til materiallarini uning egasidan alohida o'rganishga yo'l qo'yamaydi. Assotsiativ tahlil asosida muayyan til egalarining voqelikni idrok etishi, kognitiv bilimi, lisoniy qobiliyati, lisoniy xotirasi imkoniyatlari, leksik birliklari zahirasi o'rganiladi. Ushbu maqolada assotsiativ maydonning o'zbek tilidagi tavsifi, unga oid ilmiy qarashlar, maydonning markaziy va chegara birliklari o'rtasidagi munosabat, maydonning leksik, semantik va sintaktik xususiyatlari, assotsiativ birliklar o'rganilgan. Tajriba asosida assotsiativ birliklar orqali sintaktik birikmalarning shakllanishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: assotsiativ tilshunoslik, assotsiativ tajriba, assotsiativ birliklar, assotsiativ maydon, assotsiativ munosabat, stimuly so'z.

Annotation: In the analysis of the linguistic landscape of the world, it is important to study the issue of a person's perception of the external world and its reflection in language. The role of associative thinking in the reflection of the world in language, the associative connection of linguistic units, their integration into certain groups according to this connection, their role in creating a sentence or text shows that the associative approach is of high importance. Associative approach to learning a language, methods of associative analysis do not allow learning language materials separately from its owner. On the basis of associative analysis, the perception of reality, cognitive knowledge, linguistic ability, linguistic memory, and reserve of lexical units of the speakers of a certain language are studied. This article the description of the associative space in the Uzbek language, scientific views on it, the relationship between the central and peripheral units of the space, lexical, semantic and syntactic features of the field, and associative units are studied. Based on experience, the formation of syntactic compounds through associative units is analyzed.

Key words: associative linguistics, associative experience, associative units, associative space, associative relation, stimulus word.

Аннотация: При анализе языкового ландшафта мира важно изучить вопрос восприятия человеком внешнего мира и его отражения в языке. Роль ассоциативного мышления в отражении мира в языке, ассоциативная связь языковых единиц, их объединение в определенные группы по этой связи, их роль в создании предложения или текста показывает, что ассоциативный подход имеет большое значение. Ассоциативный подход к изучению языка, методы ассоциативного анализа не позволяют изучать языковой материал отдельно от его владельца. На основе ассоциативного анализа изучаются восприятие действительности, когнитивные знания, языковые способности, языковая память, резерв лексических единиц носителей определенного языка. В данной статье изучены описание ассоциативного поля в узбекском языке, научные взгляды на него, соотношение между центральными и периферийными единицами поля, лексические, семантические и синтаксические особенности поля, а также ассоциативные единицы. На основе опыта анализируется образование синтаксических соединений посредством ассоциативных единиц.

Ключевые слова: ассоциативная лингвистика, ассоциативный опыт, ассоциативные единицы, ассоциативное поле, ассоциативное отношение, слово-стимул.

KIRISH

Assotsiatsiya tamoyili barcha psixik jarayonlar, jumladan psixik faoliyat oliy shakllarining universalisasi hisoblanadi. Bunda assotsiatsiya (lotincha *association* – bog‘lanish) termini ostida ikki va undan ortiq refleks holda namoyon bo‘ladigan psixik hodisalarning (his etish, idrok etish, tasavvur, fikr, obraz va shu kabilar) o‘rtasidagi aloqa tushuniladi; assotsiatsiya bir a‘zoning ma‘lum sharoitda aktuallashuvi orqasidan boshqasining namoyon bo‘lishiga olib keladi. Hozirgi kunda tilshunoslikning assotsiativ tajriba materiallariga tayanib ish ko‘radigan yangi yo‘nalishi assotsiativ tilshunoslik asosan til birliklarini sof holda o‘rganadi, ya‘ni bu yo‘nalishda tilning nutqqacha bo‘lgan bo‘lgan tabiiy holati tahlil etiladi. Har bir shaxsning nutqiy imkoniyatlari kengayib, lug‘at boyligi oshgani sari so‘zlar shaxs ongida ma‘lum bir semantik to‘dalarga birlashadi. Assotsiativ tajribada berilgan turtki so‘zga semantik, ba‘zan shakliy aloqadorligi mavjud bo‘lgan so‘zlar – assotsiatlar yuzaga keladi. Bunday birliklar yig‘indisi tilshunoslikda *assotsiativ maydon* deb yuritiladi. Assotsiativ maydon inson ongidagi tasavvurlar va ular bilan bog‘liq tushunchalar, olam haqidagi bilimlari, tilning turli birliklari asosida yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Rus tilshunosi Y.N.Karaulov assotsiativ maydonga insonning nafaqat verbal xotirasi,

bilimlari, balki tildagi semantik va grammatik munosabatlar, shuningdek, ongdagi obrazlar, motivlar va u yoki bu madaniyat vakillari bahosining yig‘indisidir, deb ta‘rif beradi [5].

Tadqiqotchi V.P.Abramov assotsiativ maydonni bir butun mazmuniy aloqalarining murakkab to‘ri individum ongida aks etishini, ma‘lum mazmuniy maydonlarning aktuallashtirilishini hamda so‘zni psixologik tizimning muhim aspekti sifatida ifodalaydi. [11]

O‘zbek tilshunosligida assotsiativ tilshunoslik, assotsiativ maydon masalasiga oid fikrlar tilshunos olim D.Lutfullayeva, N.Hoshimova, B.Tojiboyev, H.Ortiqovalarning ishlarida mavjud. Til birliklarining assotsiativ aloqasi, tilda verbal assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishi monografik aspektda D.E.Lutfullayeva tomonidan maxsus o‘rganilgan [1] bo‘lsa, B.Tojiboyev o‘zbek tili milliy-madaniy birliklarining assotsiativ xususiyatlarini tadqiq qilgan. [2]

D.Lutfullayeva assotsiativ maydonni ongdagi bilim va tasavvurlarni namoyish etuvchi birliklar sifatida tavsiflaydi va shunday ta‘rif beradi: “Assotsiativ maydon – struktur jihatdan leksikografik xususiyatga ega bo‘lgan, mohiyatan inson ongida aks etgan muayyan voqelik, uning hamrohlari obrazining verbal ifodasi, u haqdagi tasavvuri, bilimlarini namoyish etuvchi tilning o‘zaro assotsiativ bog‘langan semantik va grammatik munosabatdagi birliklari yig‘indisidir”. [1, 58]

Assotsiativ maydon til egalarining borliq haqidagi tasavvurlari asosida o‘zaro assotsiativ bog‘langan, murakkab tuzilmaga ega bo‘lgan birliklar majmuidir. Assotsiativ maydon ham

individual, ham til egalari jamoasiga xos tasavvurlarni ifoda etuvchi turli sath birliklarining yig'indisidir.

Assotsiativ maydon til egasining borliq haqidagi bilimlari, ruhiyati, dunyoqarashi, qiziqishlari bilan bog'liq holda hayotiy tajribasi oshgan sari turtki so'zga berilgan reaksiyalari turli xil bo'lishi natijasida o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'ladi.

Assotsiativ tajriba yakka shaxs yoki ko'p sonli til egalari ishtirokida tashkil qilinib, olingan natijalarni umumlashtirish asosida assotsiativ maydon hosil qilinadi. Yakka shaxsda o'tkazilgan assotsiativ tajriba materiallari asosida individual assotsiativ maydon yuzaga keladi. Ammo ko'p sonli sinaluvchilarda assotsiativ tajriba o'tkazish orqali shakllantiriladigan assotsiativ maydon jamoaviy xarakterga ega bo'ladi[2].

NATIJARLAR

Assotsiativ maydon til vakillari orasida o'tkaziladigan assotsiativ tajriba asosida shakllantiriladi. Bunda til vakillariga turtki so'z beriladi, shu bo'yicha xotirasiga kelgan birinchi so'z yoki so'z birikmasi, gap yozib olinadi, keyin barcha natijalar jamlanib assotsiativ maydon shakllantiriladi.

Assotsiativ maydon so'zlarning assotsiativ ma'nosini tekshirishda, tilning leksik tarkibi, undagi o'zgarishlarni aniqlashda, leksik birliklarning o'zaro paradigmatic, sintagmatic aloqasini kuzatishda muhim ahamiyatga ega. Assotsiativ maydondan turtki so'zning sinonimlari, antonimlari, paronimlari, uyadoshlari, o'zakdoshlari, ko'chma ma'nolari, u bilan makon va zamonda bog'lanishga ega bo'lgan birliklar, so'z birikmalari, gaplar, maqol va matallar ham o'rin oladi.

Biz quyida bir nechta assotsiativ maydonlar misolida antonim va sinonimlarning maydondagi o'rni, ishtiroki, ularning miqdori kabilarni tahlil qilamiz.

Ma'lumki, antonim leksemalar bevosita semantik ziddiga ishora qilishi orqali inson xotirasida o'zaro bog'langan holda doimo bir-birini taqozo qilib turadi. Shu sababli bir antonim leksema turtki so'z sifatida u bilan bog'liq qarama-qarshi ma'nodagi antonim leksemani xotiramizda tiklanishiga olib keladi. Masalan, *keng – tor, uzun – qisqa, quvnoq – bosiq* kabi.

Til egalari ishtirokida o'tkazilgan tajriba natijasida shakllangan assotsiativ maydon birliklari

orasida ham antonim so'zlar maydonning asosiy qismidan o'rin oladi. Masalan, *oq* leksemasiga sinaluvchilar tomonidan berilgan assotsiativ maydonda quyidagi antonim so'zlarni ko'rish mumkin: *oq – qora, oq it - qora it, unashtirish – motam, oq ko'ngil – ichi qora, oq qog'oz – qora qog'oz*.

Hattoki *oq* so'zi assotsiativ maydonida enantiosemik munosabatdagi birliklarni ham uchratish mumkin. Ma'lumki, enantiosemiya ham bitta leksema ma'nolari o'rtasida ifodalangan qarama-qarshilik hisoblanadi. Ushbu *fotiha* enantiosemik birligi unashtirish va o'lim marosimiga nisbatan ham qo'llanadi, ya'ni *fotiha* leksemasi nutqda unashtirish marosimi va o'lim marosimi degan ikki ma'noda ishlatiladi. Shuningdek, *oqliq* leksemasi to'yga rozilik belgisi sifatida so'vchilarga sovg'a qilinadigan oq va kafan, kafanlik ma'nolarini ham ifodalaydi. Maydondan stimuly so'zga nisbatan antisemik munosabatni hosil qilgan birliklarni ham kuzatish mumkin: *oq – qoraymoq. Demak, ko'rish mumkinki, qarama-qarshilik asosida hosil bo'lgan antonimik, enantiosemik, antisemik birliklar maydonning markaz qismidan o'rin olgan*. D.Lutfullayevaning qayd etishicha, "antonimik munosabatdagi leksik birliklarning assotsiativ bog'lanishi semantik aloqadorlikka asoslanadi... Zid a'zolarining qarshilantirilishi orqali o'zaro bog'lanishi ularning til egasi xotirasida bir-birini yodga solib turishiga sabab bo'ladi. Bu holat semantik jihatdan o'zaro zidlanuvchi leksemalarning ham tilda leksik assotsiatsiyalarni hosil qilishini anglatadi. Masalan, *olis* leksemasi *yaqin* leksemasi bilan, *achchiq* leksemasi *shirin* leksemasi bilan antonimik munosabati asosida assotsiativ bog'lanadi".[1,40] Xuddi shunday holatni *qora* leksemasi assotsiativ maydonida ham kuzatish mumkin.

Oq leksemasi asosida yuzaga kelgan assotsiativ maydonning markaz qismidan sinonimik munosabatga kirishuvchi birliklar o'rin olganini kuzatish mumkin, ya'ni *oq* so'zi bilan ma'no uyg'unligiga ega *sutrang, paxta rangli, oq tusga moyil* kabi birliklar maydonning markazidan o'rin olgan.

Ko'p ma'noli *bosh* turtki so'zi assotsiativ maydonida ham qarama-qarshi munosabatlar asosidagi antonim va enantiosemitlar maydon markazidan o'rin oladi hamda paradigmatic

munosabatga kirishadi. Masalan, *bosh-oyoq, boshi – so‘ngi, boshi – oxiri, katta – kichik kabi antonimlar tajriba qatnashuvchilari tomonidan maydon birligi sifatida bir necha marta eslangan. Maydondan o‘rin olgan ko‘chaning boshi* birikmasi ham ko‘chaning boshlang‘ich nuqtasiga, ham tugash nuqtasiga nisbatan qo‘llanishi bilan enantioseмик birlik sanaladi.

Bosh turtki so‘zi asosida hosil qilingan maydonda bu so‘z bilan semantik jihatdan bog‘langan bir necha sinonimlarni kuzatish mumkin. *Bosh* so‘zi ko‘p ma‘noli so‘z bo‘lgani sababli bu so‘zning o‘z ma‘nosi hamda ko‘chma ma‘nosi bilan assotsiativ bog‘langan ma‘nodoshlar maydondan o‘rin olgan. Masalan:

1) turtki so‘zning o‘z ma‘nosi asosidagi sinonimik munosabat: *kalla, odamning kompyuteri;*

2) turtki so‘zning ko‘chma ma‘nosi asosidagi sinonimik munosabat:

– “boshliq, rahbar” ko‘chma ma‘nosi asosidagi sinonimik munosabat: *rahbar, lider, boshliq;*

– “aql-hush, miya” ko‘chma ma‘nosi asosidagi sinonimik munosabat: *aql-hush, bilim, zehn;*

– “eng muhim, yetakchi” ko‘chma ma‘nosi asosidagi sinonimik munosabat: *asosiy.*

MUHOKAMA

Yuqoridagi tahlillardan ma‘lumki, *oq* va *bosh* so‘zlari ko‘p ma‘noli so‘z bo‘lganligi sababli til vakillariga turtki so‘z sifatida berilganda, bu so‘zning nafaqat bosh ma‘nosi, balki ko‘chma ma‘nosi bilan bog‘liq bo‘lgan assotsiativ birliklar ham eslangan va maydondan o‘rin olgan. Maydonda nafaqat ma‘no jihatdan, balki shakl jihatdan bir-birini taqozo qilgan so‘zlar ham o‘rin olgan bo‘lib, maydonning markaz qismida aynan ma‘no jihatdan o‘rin olgan antonim va sinonim so‘zlar joylashganini kuzatish mumkin. Demak, ushbu leksemalar assotsiativ maydonida maydonga mansub birliklar

sinonimik, antonimik, enantioseмик, antisemik munosabatga kirishadi. Assotsiativ maydonda bulardan tashqari grammatik-struktur belgilari, so‘z yasalishi va pragmatik xususiyatlari asosida o‘zaro uyg‘unlik hosil qiladigan birliklar ham o‘rin olganini ko‘rish mumkin.

XULOSA

Assotsiativ maydon turtki so‘zning mazmunini ochib beruvchi butunlik bo‘lib, unda turtki so‘z bilan mazmun jihatdan o‘zaro bog‘langan, ba‘zan esa mazmun jihatdan turtki so‘zga aloqador bo‘lmagan birliklar ham o‘rin oladi. Assotsiativ maydon birliklari til egalarining turtki so‘z bilan bog‘liq bilimlari, tasavvurlari, qiziqishlarini ifodalaydi. Demak, turtki so‘z asosida aniqlangan assotsiativ maydonda maydonga mansub birliklar asosan sinonimik, antonimik, enantioseмик va antisemik munosabatga kirishadi va maydonning markaz qismidan o‘rin oladi. Til egalari aynan mana shu bog‘liqlik asosida so‘zlarni xotirada eslab qoladi va mazmunini anglaydi. Assotsiativ maydon turtki so‘zning lisoniy kontekstini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Лутфуллаева, Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017.

2. Тожибоев, Б. Ўзбек тили миллий-маданий бирликларининг ассоциатив тадқиқи: филол.фан.бўйича (PhD) фалс.докт.дисс. автореферати. – Тошкент, 2020.

3. Нурмонов, А. Парадигма ва унинг оламнинг лисоний манзарасига муносабати. Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент: Akademhashr, 2012.

4. Лутфуллаева, Д.; Давлатова, Р.; Тожибоев, Б. Ўзбек тили ассоциатив луғати. – Ташкент, 2019.

5. Караулов, Ю.Н. Ассоциативная грамматика русского языка. Изд.2 – М.: УРСС. 2010.